XALQ DEPUTATLARI ZOMIN TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-15-160-3-48-K/25 Zomin tumani

2026-yil uchun Zomin tumanining mahalliy budjeti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025 yil 25 dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-23-350-3-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq hamda Jizzax viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 02-01-01-172-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Zomin tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuni hamda xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-23-350-3-0-K/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qonunga muvofiq, Zomin tumani mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari 131841719,0 ming so‘m va xarajatlari esa 131841719,0 ming so‘mni tashkil etishi ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek, Zomin tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 737000,0 ming so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Zomin tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda 2026-yilda umumdavlat

soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori 2-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1784412,0 ming so‘m** miqdorida belgilansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Z.Omonkulov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari (D.Mamatqulov), tuman soliq inspeksiyasi (I.Musurmonov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarining o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Zomin tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (E.Eshkuziyev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Z.Omonkulov zimmasiga yuklatilsin.

9. Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **ABDUGANIYEV ALISHER MUXAMMADIYEVICH**

Xalq deputatlari Zomin tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-160-3-48-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Zomin tuman mahalliy budjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

№	Daromad turlari	Zomin tumani
	JAMI	**131 841 719**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	6 277 200
2	Foyda solig‘i	3 679 000
3	Aylanmadan olinadigan soliq	8 454 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	30 653 160
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	1 335 800
	Aksiz solig‘i jami	5 907 300
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	pivo	*0*
6	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*5 907 300*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7 459 228
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	11 520 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	19 447 200
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	29 088 781
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	2 019 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 902 000
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	3 850 000
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	1 540 000
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	1 000
14	Davlat boji	362 650
15	Yig‘imlar	607 200
16	Jarimalar	951 200
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	177 000

Xalq deputatlari Zomin tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-160-3-48-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun ajratma me’yorlari

Hududlar nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				Foyda solig‘i				Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)			
	Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
Zomin tumani	0%	50%	100 %	50%	0%	30%	100 %	70 %	100%	100%	0%	0%	0%	25%	100%	75%	0%	0%	100 %	100 %

Hududlar nomi	Pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq			
	Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
Zomin tumani	0%	0%	100 %	100 %	0%	70%	100 %	30 %	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100 %	100 %	0%	0%

Hududlar nomi	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig‘imlar	
	Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB								
Zomin	100	100	0%	0%	100	100	0%	0%	100%	0%	5%	95%	10%	90%	20%	80%

tumani	%	%			%	%										

Xalq deputatlari Zomin tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-160-3-48-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun Zomin tumani mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**131 841 719,0**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	40 231 864,0
	shundan:	0,0
	"Mening maktabim"	4 696 800,0
2	Madaniyat bo‘limi	6 255 068,0
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	4 907 905,0
4	Sport bo‘limi	5 084 591,0
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 834 368,0
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	4 474 175,0
7	Irrigatsiya bo‘limi	1 462 215,0
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	3 180 553,0
9	Ijtimoiy hximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	0,0
10	Hokimiyat	36 612 563,0
	shundan:	0,0
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	0,0
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	0,0
	Madaniyat bo‘limi	0,0
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	0,0
	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	0,0
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	0,0
	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	0,0
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	0,0

	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*19 362 568,0*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2 826 000,0*
	Zahira jamg‘armasi	*1 784 412,0*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	1 057 706,0
	shundan:	0,0
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*0,0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*1 057 706,0*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	26 740 711,0
	Mening yo‘lim	4 400 000,0